



## BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINING INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA IJODIY KOMPETENTLILIGINI RIVOJLANTIRISH.

*To‘rayeva D.E. Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM dotsenti*

### *Annotatsiya.*

Maqolada integrativ yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy kompetentliligini rivojlantirishning pedagogik asosi tahlil qilingan.

**Tayanch tushunchalar:** integratsiya, o‘quv faoliyati, ijod, kompetensiya, ko‘nikma, malaka, bilim, metodika, aql, ta’lim.

### **Абстрактный.**

В статье анализируются педагогические основы развития творческой компетентности будущих учителей начальных классов на основе интегративного подхода.

**Основные понятия:** интеграция, учебная деятельность, творчество, компетентность, умение, компетенция, знание, методология, интеллект, образование.

### **Abstract.**

The article analyzes the pedagogical foundations for the development of creative competence of future primary school teachers based on an integrative approach.

**Basic concepts:** integration, learning activities, creativity, competence, ability, competence, knowledge, methodology, intelligence, education.



Uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan. Umumiy o'rta ta'lim (I-XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich ta'lim (I - IV sinflar);

tayanch o'rta ta'lim (V - IX sinflar);

o'rta ta'lim (X - XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan [2]. O'qituvchilik faoliyati, boshlang'ich maktablar hamda boshlang'ich ta'lim bilan bog'liq tarixiy jihatlar azaldan mavjud bo'lib, rivojlanib kelgan (1.1-jadvalga qarang):

1.1-jadval.

**O'qituvchilik faoliyati, boshlang'ich maktablar hamda boshlang'ich ta'lim bilan bog'liq tarixiy jihatlar**

| №  | Davrlar          | Davrlarda olib borilgan harakatlar                                                                                                                                |
|----|------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | VIII-XIII asrlar | Boshlang'ich maktab va qorixonlar ochilgan                                                                                                                        |
| 2. | XIV-XV asrlar    | Ta'limda o'qituvchi asosiy o'rinda turishi kerakligini, o'z pedagogik mahorati va yaxshi fazilatlari bilan o'quvchilarga namuna bo'lishi, yaxshi tarbiya ko'rgan, |



|  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |
|--|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|  | <p>chuqur bilimli ayni chogʻda maʼrifatparvar inson boʻlishi kerakligini Ulugʻbek taʼkidlaydi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
|  | <p>Jomiy kitobni bilim manbai der ekan, muallimni kelgusi yosh avlodda bu sifatlarni hosil qiluvchi ustoz sifatida ulugʻlaydi, ularni hammadan koʻra ortiq hurmat qilishga daʼvat etadi. Shu bilan birga har bir muallim chuqur bilim. eng yaxshi axloqiy fazilatlar sohibi boʻlishi kerak.</p>                                                                                                                                                                                         |
|  | <p>....oʻquvchilar faqat oʻqish bilan mashgʻul boʻlishlari uchun ularga nafaqa tayin etib. Madrasalarni Alisher Navoiy bino qildi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
|  | <p>Koshifiyning fikricha, “murabbiy bolaga nisihat va taʼlim berishda lutf va odob qoidalarini qatʼiy turishi. Ularga rioya qilishi darkoryu jamoatchilik joylarda unga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga gapirish zarur. Agar nasihat qilishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfeʼl boʻlish maqsadga muvofiqdir”.</p>                                                                |
|  | <p>Davoniy muallimlarni ikki guruhga boʻladi: bolalar hulq odobiga salbiy taʼsir qiluvchi, qoʻpol va badjahl muallimlar hamda aqlli, bola tarbiyasidan xabardor, yaxshi xislatli muallimlar. U birinchi guruh muallimlarini qoralaydi, hatto ularni taʼlim-tarbiya jarayonidagi butunlay chetlashtirilishiga tarafdorlik bildiradi, keyingi guruhni olqishlaydi, ularning shu harakat yoʻnalishlarini maʼqullaydi, bunday muallimlarning ish tajribasidan oʻrganishga daʼvat etadi.</p> |



|    |                            |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |
|----|----------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|    |                            | Bobir kim ilm talab qilsa, unga ilmli kishi (ustoz), ilm o'rganish uchun oliy matlab bo'lishi kerak.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |
| 3. | XVI-XIX asr                | Berdaq bilim va tarbiya haqida fikr yuritar ekan, maktabda dars beruvchi muallim o'z xushmuammoligi, pok qalbliigi. Haqgo'yliigi, o'z fanini yaxshi, puxta bilishi bilan boalarga o'rnak bo'lishi kerakligini aytadi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
|    |                            | Abayning fikricha, davlat maktablar ochishi. Bu maktablar uchun zarur mablag'larni xalq o'z zimmasiga olmog'i lozim, toki unda hamma, hatto qizlar ham bilim olsinlar.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |
| 4. | XIX asrning ikkinchi yarmi | Furqat rus-tuzim maktablarida bo'lib yangicha o'qish-o'qitishlarni kuzatadi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
|    |                            | Dilshod barno 13 yil davomida turkiy tilni mukammal o'rganib, maktabdorlik qiladi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
| 5. | XIX asrning birinchi yarmi | Abduqodir Shakuriy Samarqandda birinchi bor yangi usuldagi "Usuli savtiya" maktabini tashkil etdi. Maktab ta'limida qulay va yengil usullarni qo'lladi va bu sohada katta muvaffaqiyatlarga erishdi. U ta'limda, asosan boalarning savodli bo'lishlari, ularda nutq madaniyatini o'stirishga e'tibor berdi, tovush-harf usulini qo'llash orqali savod chiqarishni yengillashtirdi. U yangi usul maktab o'quvchilari uchun tushunarli uslubda "Rahnomai savod" ("Savod chiqarishga yo'llanma") va Ismatilla rahmatullayev bilan birgalikda "Alifbe ta'limi" qo'llanmalarini yaratdi. |



|    |                                  |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
|----|----------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|    |                                  | <p>Ishoqqon To‘ra – Ibrat o‘quvchida nutq madaniyatini, savodxonlikni o‘stirishga, tarixiy bilimni egallashga, axloqiy tarbiyaga alohida e‘tibor berdi.</p> <p>Muhammadsharif So‘fizoda 1913 yilda Chust qishlog‘ida yangi usul maktabini, Qamarsada qishlog‘ida yetim bolalar uchun “Dorulaytom” (“Yetimlar uyi”) ochdi, kattalar uchun kechki kurslar tashkil qildi.</p>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |
| 6. | XIX asr<br>oxiri XX asr<br>boshi | <p>Behbudiy maktab, maorifni – inson ongini shakllantirish va rivojlantirish, millatlararo do‘stlikni mustahkamlash vositasi hisobladi, ochilga yangi usul maktablarida o‘quvchilarni shaxs sifatida kamol toptirishga, ulardagi insoniy fazilatlarni shakllantirishga e‘tibor berdi.</p> <p>Sadriddin Ayniy 1909 yilda Buxoroda yangi usul maktabini ochadi, “Yoshlar tarbiyasi” nomida darslik yozadi.</p> <p>Munavvarqori Abdurashidxonov Toshkentda birinchilardan bo‘lib, o‘z uyida “Usuli jadid” – yangi usul maktabini ochdi va uning uchun 1907 yilda “Adibi avval” (“Birinchii adib”) – alifbe, “Adibi soniy” (“Ikkinchi adib”) – o‘qish kitobini nashr ettirdi. Tashkil etgan maktabida darslarning ko‘rgazmali bo‘lishiga, bilimning amaliyotga tatbiq etilishiga ahamiyat berdi, asosiy e‘tiborni ta’limning demokratik asosda bo‘lishiga qaratdi, bolalarga diniy va dunyoviy fanlardan saboq berdi. Har bir fan bo‘yicha dastur tuzib, unda bolalarning aqliy, jismoniy va axloqiy jihatdan</p> |



|    |                           |                                                                                                                                                                                                          |
|----|---------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|    |                           | rivoj topishini, ta'lim usullarini takomillashtirishna nazarda tutdi.                                                                                                                                    |
|    |                           | Abdulla Avloniy 1909 yilda Degrez mahallasida yangi maktab ochdi, 1909-1917 yillar davomida uning "Birinch muallim", "Ikkinchi muallim", "Turkiy Guliston yoxud axloq", "Maktab gulistoni" nashr etildi. |
|    |                           | Abdurauf Fitrat Turkistonda yangi maktablar ochib, ularni yangi dastur va darsliklar bilan ta'minlash haqida qayg'urdi. U 1917 yilda Bokuda "O'quv" kitobini nashr ettiradi.                             |
|    |                           | Hamza Hakimzoda Niyoziy 1911 yili Qo'qlnning Hojibek guzarida maktab ochib, bolalarni o'qitadi. O'quvchilar uchun "Yengil adabiyot". "O'qish kitobi" o'quv qo'llanmalarini yaratadi.                     |
|    |                           | Elbek "O'rnak" o'qish kitobi, 1-2-3-sinflar uchun "O'qish kitobi", 4-sinf uchun "Go'zal yozgichlar" kitobi nashr qilinadi.                                                                               |
| 7. | XX asrning ikkinchi yarmi | Qori Niyoziy 1917 yil inqilobidan keyin yangi turdagi maktablar ochishda faol ishtirok etdi, maktablar uchun qo'llanma, metodik tavsiyalar yozdi.                                                        |
|    |                           | Siddiq Rajabov 1962 yilda pedagogika bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi birlashgan kengash raisi bo'lib xizmat qildi.                                                                                     |



|    |                        |                                                                                                                                                                                 |
|----|------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
|    |                        | Shorasul Zunnun “Til saboqligi” (1924 yil), “O‘qish kitobi” (1928 yil) darsliklarkini va “Til qoidalari” qo‘llanmasini yaratdi.                                                 |
| 8. | Mustaqil O‘zbekistonda | Malla Ochilov 1958-1990 yillarda boshlang‘ich ta‘lim, o‘qituvchi kasbi, axloqiy tarbiya, tarbiyaviy ishlar, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlariga doir ilmiy nashrlari mavjud. |

Boshlang‘ich maktabda yoshga mos xususiyatlar ishlab chiqildi. “Ona tili maktabida ichki his-tuyg‘ular, ijro organlari – qo‘l va til bilan tasavvur va xotira kuchi ko‘proq o‘qish, yozish, rasm chizish, kuylash, sanash, o‘lchash, tortish, turli materiallarni yodlash va hokazolar orqali amalga oshiriladi”, - deb yozgan Komenskiy. Maktabning maqsadi bolalarning butun hayotini uzaytiradigan narsalarni o‘rgatishdir.

Yan Amos Komenskiy "yoshlar mehribonlik fazilatlariga tarbiyalanadi" sifatida maktabni qabul qilgan, ta‘lim-tarbiyaga beparvolik va tarbiyaviy vazifalarga e‘tiborsizlik esa qat’iy jazolangan.

Har bir sinf uchun Yan Amos Komenskiy alohida o‘rganib yaratish intildi. U o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar bilan boyitdi, masalan, boshlang‘ich maktabda o‘qitishning asosiy tamoyili – ko‘rgazmalilik tamoyiliga mos keladigan "suratlarda sezuvchi narsalar dunyosi" kitobini yaratdi. Yan Amos Komenskiyning o‘z ona tilida dars olib borish talabi ham o‘sha davr uchun asosiy ahamiyatga ega edi.

Hozirgi davrda boshlang‘ich ta‘limda muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. XVII asrda Yevropada ta‘lim muassasalari yetarli emas edi va ta‘lim darajasi past edi. 1642 yilda Germaniyadagi boshlang‘ich maktablar dasturlariga asos bo‘lgan “Got maktab Nizomi” yozildi. Unga muvofiq quyi, o‘rta va oliy maktablarda ta‘lim



rejalashtirilgan edi. Birinchi ikki katexizm o'rgatgan edi (savol-javob shaklida nasroniy imon qisqa bayonot), ona tili, hisoblash va cherkov qo'shiq va katta sinfda ular bo'jxona o'rganish qo'shildi, tabiyot tarixi va mahalliy geografiya. Quyi sinfda bolalar 5 yoshdan qabul qilingan, ular imtihonlardan o'tgunlariga qadar o'qishgan, ammo 14 yoshdan oshmagan. Lekin maktablarda professional o'qituvchilar yetarli emas edi. Faqat XVII asrning oxirida Fransiyada o'qituvchilar tayyorlash Sankt-Charlz seminariyasida tashkil etildi, bu har yili 20-30 o'qituvchilardan oshmasligi kerak edi.

Ayni paytda diniy jamoalar tomonidan tashkil etilgan maktablar bilan oddiy maktablar o'rtasida qarama-qarshilik shakllanadi. Aholi ustidan o'z nazoratini saqlab qolishdan xavotirga tushgan cherkov boshlang'ich maktablarda ta'limni tashkil etishga, undagi diniy mazmunni faol o'z ichiga olishga harakat qildi. Biroq dunyoviy boshlang'ich maktablar soni tobora ko'payib, savodli aholi soni ortib borardi. Dastlab bunday maktablarda ta'lim mazmuni siyraklashgan (qadimgi tillar, adabiyot), lekin asta-sekin tabiatshunoslik sikli mavzulari bilan to'ldirila boshlagan [4].

Angliyada reformatsiya davrida (XVII–XVIII asrlar) kambag'allar uchun xayriya va yakshanba maktablari tashkil etila boshlandi, so'ngra Germaniyadagi shahar maktablari va gimnaziyalar modelida tashkil etilgan mashhur grammatika maktablari vujudga keldi.

XX asr oxirida iste'dodli bolalar va aksincha, aqliy va jismoniy rivojlanish qiyinchiliklari bo'lgan bolalarni tarbiyalashga tobora ko'proq e'tibor berilmoqda. Xuddi shu davrda yangi yo'nalish kompensatsiyalovchi trening paydo bo'ladi, bu esa muvaffaqiyatsizlikka uchraganlarning qiyinchiliklarini yengishga imkon beradi. Shu munosabat bilan bolalarni maktabga erta tayyorlash nafaqat maxsus tashkil etilgan guruhlarda, balki ommaviy axborot vositalari (bolalar uchun TV dasturlar) yordamida ham boshlanadi, sinflardagi bolalar soni kamayadi, o'quvchilarga to'g'ri yordam berish uchun ota-onalar bilan muloqot tashkil etiladi, vaqtinchalik



moslashish darslari yaratiladi va ta'limda psixologik xizmatlar tizimi rivojlantiriladi [3].

Asrning boshida an'anaviy dasturlarga muvofiq o'qishni niyat qilmaganlar uchun muqobil ta'lim paydo bo'ladi. Masalan, Epltonda boshlang'ich ta'lim uch yillik va ikki yillik davrlarga bo'linib, sinflarni bartaraf etdi. Ta'lim oluvchi boshqalarning o'quv jarayonida bosib o'tishi yoki orqada qolishi mumkin edi, eng asosiysi, muddatni qondirish edi. Fransiyada bolalar o'qituvchilar bilan birgalikda ota-onalar tomonidan o'qitiladigan Amerikadagidek yovvoyi maktablar ham bor edi, ularning ayrimlar davlatlar tomonidan qisqartirildi va boshqalari esa o'quv yilini uzaytirdi.

Oliy ta'lim muassasalari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik mahorat, shaxsiy sifatlar, o'quvchilarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash layoqati kabi mavjud ijtimoiy talablarga mos bo'lishi zarur. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tayyorgarlik darajasi, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, zamonaviy pedagogik va axborot ta'lim texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ko'nikma, malakalarni rivojlantirishni ham taqozo etadi [5].

Xulosa qilib aytganda, Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardoshli kadrlarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy hayotidagi va uning ta'lim sohasidagi demokratik o'zgarishlar - demokratlashtirish, ta'lim muhitining diversifikatsiyalash, ijtimoiy ta'lim buyurtmasining dispersiyasi, turli-tuman dasturlar, darsliklar, o'quv rejalari, ta'lim muassasalarining yuzaga kelishi O'zbekistonda o'qituvchilar tayyorlash tarixidagi ahamiyatli o'xshashliklari to'g'risidagi xulosaga kelish imkonini beradi.



### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni. 2020 yil 23 sentabr O'RQ-637 son Qonuni.

2. Abdullayeva B.S. Akademik litsey o'quvchilarining matematik tafakkurlarini rivojlantirish (umumlashtiruvchi darslar misolida). Dis. ... ped. fan. nom. – Toshkent: TDPU, 2002. – 146 b.

3. Masharipova U. Innovatsion ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasi: Dis. ... ped. fan. nom. – T., 2017. – 163 b.

4. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. – T.: Cho'lpon, 2018. – 144 b.

5. Bonimar T. Afalla, Fitzgerald L. Fabelico. Pre-service teacher's pedagogical competence and teaching efficiency // Journal of Critical Reviews. – Vol 7. – Issue 11. – 2020. – P. 223-227.